

**"IKKI ESHIK ORASI" MISOLIDA YOZUVCHINING BADIY MAHORATI**

*JDPU talabasi Raxmatova Xurshida*

*Ilmiy rahbar: Xidirova Munavvara*

**Annotatsiya**

Bu maqolada urush vaqti va front orti jarayonlarida mardonavor qatnashgan o'zbek xalqi haqida hikoya qiluvchi „Ikki eshik orasi“ romanidagi urush tasvirlarini ko'ramiz. Bu asarda qahramonlarning chigal taqdiri kitobxon qalbini larzaga soladi. Urush davrida qiynalgan insonlar ko'z oldimizda gavdalanadi. Bugungi kunga shukur qilish hissi uyg'onadi.

**Abstract**

In this article, we will look at the images of war in the novel "Between Two Doors", which tells about the Uzbek people who bravely participated in wartime and rear-line processes. The complex fate of the heroes in this work shakes the reader's heart. People who suffered during the war are embodied before our eyes. A feeling of gratitude for today awakens.

**Kalit so'zlar:** mahorat, Robiya, "Qora amma", Vatan, Kimsan

**Kirish**

Asar muallifi bo'lgan O'tkir Hoshimov har bir o'zbek kitobxonini qalbiga kirib borgn yozuvchilardan biridir. Yozuvchini „Dunyoning ishlari“ asari orqali ham yaxshi tanimiz. Bu asari orqali yozuvchi haqiqiy o'zbek onasi timsolini yaratib bergan. Uning „Ikki eshik orasi“ asari ham o'z kitobxonlariga ega asar. Bu safga yana juda ko'plab yoshlar qo'shilishmoqda. Asar shu qadar qiziqarliki, bu asarni o'qiyotgan o'quvchi bevosita ular bilan yashaydi, asar voqealari ko'z oldida jonlanadi. Asarning aynan shunday nomlanishiga yozuvchi bu dunyoga kelgan odam tug'ilganida bir eshikdan kirib, omonatini topshirganda yana boshqa bitta eshikdan chiqib ketadi mazmunidagi fikrdir. Asarda ham bir eshikdan chiqib ketgan, hamma bu dunyoga mehmon ekanligini yana bir bor eslatib ketadi. Lekin yaxshi odamlar ketsa, ular unutilmaydi. Men bu asarda qishloq odamlarining bir-biriga bo'lgan chinakam mehrini ko'rdim. Shu jihatidan ham eng yoqtirgan asarlarim safiga qo'shildi. Bu asarning yana bir e'tiborli tarafi bunda urush bilan birga front orti jarayoni ham birdek tasvirlanganidir.

**Asosiy qism**

„Ikki eshik orasi“ asari qahramonlari Orif oqsoqol, Husan дума, „Qora buvi“ Robiya, Kimsan va shular atrofidagi obrazlari orqali o'sha davr muhiti ko'rsatib beriladi. Robiyaning otasi nohaq qamalgach, uni Husan дума bilan „Qora buvi“ katta qiladi. U ulg'aygach, Kimsan bilan oralarida muhabbat paydo bo'ladi. Robiya bu

muhabbat qachon uygʻonganini sezmay ham qolgan edi. Hamma narsa yaxshi, intiqlik bilan kutilgan toʻkin-sochinlikka yetishishgan davrda bir qora xabar „urush“ odamlarni bir-biridan ayiradi. Kimsan ham hamma yigitlar qatorida urushga oʻtlanadi. Urush bu joylardan ancha olis hududlarda boʻlayotgan boʻlsa-da, uning sovuq nafasi bu yerlarni ham chetlab oʻtmaydi. U juda koʻpchilikning hayotini izdan chiqarib yuboradi. Front ortida ham juda katta qiyinchiliklar boʻladi. Erkaklar deyarli qolmagan bu qishloqda daladagi hamma yumushni ayollar, bolalar va keksalar bajarishadi. Hamma erta tong otmasdan dalaga mehnatga chiqishadiyu, kun qorongʻusida uyga qaytishadi. Kasal boʻlishga ham hech kimning haqqi yoʻq - dalada mehnat qilish kerak. Shuncha mehnat qilishganiga yarasha oʻzlari yetishtirgan narsalarni oʻzlari yeyishmaydi ham - butun narsa frontga. Zora shu yuborilgan narsalar yordamga yarasa, balki oʻz jigarlarining ogʻziga tegar degan umidda. Faqat sifati pastroq narsalarni oʻzlari yeyish uchun olib qolishadi. Ularning faqat lavlagi yegan kunlari ham boʻladi, lekin urushning fojiasi bu emas! Uning fojiasi hali navqiron yigitlarning urush oʻchogʻidan qaytmasligi, oʻz erini kuta olmay boshqa bilan aysh-ishrat qilib yurgan ayollar, farzandlarning otalaridan ajralib yetim qolishi, onasining xiyonati tufayli tirik yetim qolishi, Robiyaning chin muhabbatidan kechib „togʻa“ deb katta boʻlgan insoniga turmushga chiqishi, „Qora buvi“ning oʻz oʻgʻliga atalgan qizni hali bola boʻlgan jiyani sababli ukasiga soʻrashi. Axir odam totli narsa yemasa ham yashashi mumkin, lekin muhabbatini, orzularini yoʻqotsa yashashi qiyinlashadi. Urushga ketgan Kimsan ham ortga qaytmaydi. Undan „qora xat“ kelmagani sababli asarni oʻqiyotgan kitobxon ham asar qahramonlari bilan birga har bir daqiqada uning qaytishiga umid qiladi. Urush tasvirini yaratgan yozuvchi Kimsanning jangda asirlikka tushib qolganini yozayotganda ularning ustidan qilingan tajriba haqida yozadi. Nemislar oʻz asirlarini usti muz bilan qoplangan suv yuzasini odam sigʻarlik qilib oʻyib olishadi va asirlarni bitta-bittalab kiyimsiz holda oʻsha suvga tushirib, ikki kishi ikki qoʻldan tutib turadi. Yana biri soatga qarab ularning qancha vaqtda jon berishini kuzatib turadi. Bir asir yarador boʻlgani uchun tezda joni uziladi, yana bir ayol esa har suv yuzasiga chiqarishganda tirik holda chiqaveradi, tinmay unga qarab chirqillab yigʻlayotgan farzandi yoniga oshiqaveradi. Lekin uni jon bermagunicha yana qaytib suv ichiga itarishadi. Kimsan u ayolning joni buncha qattiq emasligini biladi, uni ushlab, tirik qolishiga kuch berayotgan narsa uning onalik mehri ekanligini, lekin nemislar buni tushunmay hadeb vaqtga qarayverganidan nafrati yanada ortadi. Navbat oʻziga kelganida kuchini yigʻib nemislarning birini ham suv tubiga tortib ketadi.

### **Xulosa**

„Ikki eshik orasi“ romani urush jarayonini ham, urush orti jarayonini ham yoritgan, oʻzbek xalqi mehri, gʻururi ufurib turgan asar. Bu asarni oʻqigan kitobxon koʻziga yosh olmasdan iloji yoʻq. Asarda qahramonlar taqdiri shu qadar chigalki, lekin shunday ogʻir kunlarda ham bir-biridan mehrini, borini ayamaydigan insonlar tasviri

bor. Unda haqiqiy alp yigitlar, haqiqiy o‘zbek qizlari, chin muhabbat tuyg‘ulari uchraydi. Albatta, salbiy qahramonlar tasvirini ham uchratamiz, lekin ular qilgan gunohlariga yarasha jazo olishadi, ularning hech biri baxtli hayot kechirishmaydi. Qilgan ishlariga pushaymon bo‘lgan obrazlarni uchratamiz. Vaqtinchalik havasni o‘ylab bir umrlik baxtini boy bergan Ra’no singari obrazlar orqali bu hayotning mag‘zini chuqurroq anglab yetamiz. Shu asarni o‘qish orqali biz haqiqiy urush o‘chog‘ini, front orti jarayonini ko‘z oldimizga keltiramiz. Hayotning, yaqinlarning qadriga yetishga harakat qilamiz.

Iqtiboslar

“Rost bilan

yolgonning ortasi – tort enlik”

“Eshitganingga emas, korganingga ishon. Maqsad shu. Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolgon gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini oylaydi”

“Amal – asov otdek gap. Qolingdan bir chiqardingmi, ikki dunyodayam yetolmaysan. Ot-ku oxir – oqibat egasiga qaytib kelsa kelar, lekin amal qaytmaydi. Uni allaqachon boshqasi egarlab minib olgan boladi”

Katta vijdonsizliklar kichkina nopoklikdan bilsam nima qilay axir

Tinch, to‘kin zamonning allaqanday zavqi bo‘ladi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hoshimov, O'. (2013). Ikki eshik orasi. Roman.
2. Boltaboyev, H. (2011). El sevgan adib. Toshkent.
- 3.. Gulamovna U. S(2022) O'tkir Hoshimov asarlarida insoniy fazilatlarining ifodalanishi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali
4. O'zbek adabiyoti tarixi 4-qism. Toshkent 2014